



## TIL VA MADANIYATNING UZVIY ALOQADORLIGI

**K. ORIPOVA,**

*Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

*Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o'rganadigan aloxida ilmiy soxa sanaladi.*

**Kalit so'zlar:** *lingvokulturologiya, lisoniy, fenomen, konnotatsiya, lingvistika, til birliklari.*

*Лингвокультурология - это отдельное научное направление, изучающее язык и культуру вместе, явления, отражающие органическую взаимосвязь «языка и культуры», ее становление и развитие.*

**Ключевые слова:** *Лингвокультурология, лингвистика, феномен, коннотация, лингвистика, языковые единицы.*

*Linguoculturology is a separate scientific field that studies the language and culture together, the phenomena that reflect the relationship of «language and culture», its formation and development.*

**Key words:** *Sultural linguistics, linguistics, phenomenon, connotation, linguistics, linguistic units.*

Har bir xalqning, millatning o'z milliy an'analari, urf-odatlari mavjud. Har bir inson ana shu milliylikni o'zida aks ettiruvchi muayyan til, madaniyat, tarixga aloqador bo'ladi. Ma'lumki, til ijtimoiy xodisa bo'lish bilan birgalikda madaniyat bilan xam uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy xamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik soxasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati xamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi aloxida spetsifik yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soxa - lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o'rganishni maqsad qilgan – tilshunoslikning yangi soxasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi. Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o'rganadigan aloxida ilmiy soxa sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi xamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni ularning bilan shug'ullanadi. Bir tomondan lingvokulturologiya insoniyatning madaniy til faktoridagi o'mi, ikkinchi tomondan esa, til faktoridagi insonning o'mini o'rganadi. Lingvokulturologiya o'rganish obektiga ko'ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-moxiyati, o'rganish obektiga bo'lgan



yondoshuviga ko'ra farqli deb aytilish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo'lishi xamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruxiyati bilan bog'liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni o'rganadi xamda millat madaniyatining tilda aks etgan o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug'ullanadi. Ma'lumki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning xayot obrazi, milliy karakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. N.S.Trubetskiyning yozishicha: "Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so'z bo'lishi mumkin emas, ya'ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo'lishi shart"[1]. Til va madaniyatning ana shunday o'zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o'rganish imkonini berdi. Ya'ni, til va madaniyat.

Mamlakatshunoslik va etnolingvistikadan farqli ravishda lingvokulturologiya obektlarni to'liq nazariy-tasviriy tadqiq qiladi, ularning tilda ko'rinadigan madaniy qiymatini belgilaydi, turli tillardagi lingvokulturologik jihatlarining tahlilida lisoniy nisbiylik nazariyasi (E.Sepir-B.Uorf gipotezasi)ga tayanadi. Lingvokulturologiyaning rivojlanish davrini ikkiga bo'lish mumkin: birinchi davr – fanning vujudga kelish davri. Bu, asosan, V.Gumbolt, Ya. Grimm, A.A. Potebnya, E. Sepir ishlarida o'z aksini topgan. Ikkinchi davr – lingvokulturologiyaning mustaqil fan deb tan olinish davridir. (Lingvokulturologiya? tushunchasi ilk bor V.V. Vorob'ev, V.N. Teliya va V.A. Maslova ishlarida qayd etilgan). Lingvokulturologiyaning quyidagi yo'nalishlari mavjud: 1. Ijtimoiy guruhlar, xalqlar madaniyatini lingvokulturologik kontekst (vaziyat) larini tadqiq qilish (V. Humbolt, A.A. Potebnya, E. Sepir, A. Vejbitskaya, V.N. Teliya). 2. Qi'siy lingvokulturologiya. Bu soha bir necha ishlardagina o'z aksini topgan, xolos (S.G. Ter-minasova, V.N. Teliya, V.A. Maslova, D.O'. Hoshimova, G. Mahkamova, Z. Uteshova, SH. Ubaydullaev va b.). 3. Diaxronik lingvokulturologiya davr o'tishi bilan xalqlarning lingvokulturologik holatining rivojlanishini o'rganadi (N.D. Arutyunova, E. Benvenist, Yu.S. Stepanov). 4. Lingvokulturologik leksikografiya – shu sohaga oid lug'atlar tuzish bilan shug'ullanadi (N.V. Chernova, D.G. Mal'tseva, V. Muravleva, G.D. Tomaxin, X.R. Rahimov va b.). Lingvokulturologiyaning tadqiqot ob'ektlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: lingvomamlakatshunoslik lingvokulturologiyaning bir qismi bo'lib, quyidagi masalalar bilan shug'ullanadi: (1) muqobilsiz leksika va xos so'zlar (realiya), (2) mifologiya, urfodat, an'ana, marosimlar, (3) metafora va tilning tasviriy va obrazli vositalari, (4) frazeologik birliklar, (5) tildagi etalon, stereotip va ramziy vositalar, (6) nutq madaniyati, nutq odobi (V. Vorob'ev, V. Maslova). Har bir xalqning o'ziga xos hayot tarzi bilan bog'liq bo'lgan so'zlamini quyidagicha tasniflash mumkin: a) muayyan geografik hudud (davlat, shahar, qishloq, ko'cha, maydon) nomi bilan bog'liq xos so'zlar; b) etnografiyaga doir xos so'zlar: kiyim-kechak, oziq-ovqat, urf-odat, to'y marosimlari va b. (S. Florin, S. Vlasov, I.K.



Mirzaev). Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, "lingvokulturologiya" termini V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan [2]. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.Fon Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar[3].

XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi asosiy yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurd. Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Ma'lumki, hozirgi vaqtda tilshunoslik fanida til birliklarini o'rganishda antropotsentrik yondashuv alohida o'rin egallaydi. Ushbu yondashuv jihatidan «inson faktori» til birliklarining shakllanishi va rivojlanishida birlamchi faktorlardan biri hisoblanadi. Ushbu antropotsentrik qarashning rivojlanishi natijasida tilshunoslikda bir qator yangi fanlar, jumladan, lingvokulturologiya fani paydo bo'ldi. Lingvokulturologiya lingvistika va kulturologiya uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan, tilda aks etgan va ifodasini topgan, o'z semantikasida milliy-madaniy ma'noni aks ettiradigan til birliklarini o'rganuvchi fandır. Lingvokulturologiyada tilga madaniyatning asosiy umumlashtiruvchi qismi va jamoaviy malakalarning bebaho xazinasi sifatida qaraladi hamda madaniyatning tilga, shuningdek, tilning inson tafakkuri va dunyoqarashiga ta'sirini o'rganish nazarda tutiladi. V.V.Vorobevning ta'riflashicha, lingvokulturologiya sintezlashgan tipga mansub murakkab ilmiy yo'nalish bo'lib, til va madaniyatning o'zaro bog'liq munosabatini tizimli metodlar yordamida til birliklarida aks etishini tadqiq etadigan fandır (Vorobev, 2008, b. 32). Lingvokulturologiya fanining ob'ekti tilda aks etgan madaniy axborot, madaniyat, uning tarkibiy qismlari va til vositasida ushbu madaniyatni yaratadigan kishilar preferentsiyasi tashuvchisi bo'lgan tilni tadqiq etish (Maslova, 2004, b.35). Fanning maqsadi esa tilda o'z verbal namoyishini topgan madaniy maydonni tadqiq etish, ta'riflash va tavsiflash (Krasnix, 2002, b.13). Lingvokulturologiya bugungi kunda bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. **Lingvokulturologiya** yorqin madaniy aloqalarni, lingvomadaniy xolatlarini, aniq ilmiy izlanishlarni o'z ichiga oladigan aloxida sotsial gurux.
2. **Diaxronik lingvokulturologiya**. Lingvomadaniyatning etnos xolatidagi aniq o'tish vaqtining o'zgarishlarini o'rganadi.
3. **Qiyosiy lingvokulturologiya**. Lingvomadaniyatda paydo bo'ladigan turli xil etnoslarning ikki tomonlama qiyoslash bilan shug'ullandi.
4. **Tavsifiy lingvokulturologiya**. Bu so'ada amalga oshirilayotgan ishlar barmoq bilan sanarli. Ular orasida M.K.Golovanivskaning "Rus tilida so'zlashuvchilar nuqtai nazarida fransuz mentaliteti" nomli ishi katta ahamiyatga ega. Ishning obyekti sifatida rus va fransuz tillaridagi abstrakt tushunchalar:



taqdir, xavf, omad, qalb, ong, tafakkur, g'oya va boshqalar olingan.

5. **Lingvokulturologik leksikografiya.** Lingvoo'lkashunoslik lug'atlarini tuzish bilan shug'ullanadi [4]. Lingvokulturologiyaning bu yo'nalishi hozirgi kunda boshqa yo'nalishlarga qaraganda jadal rivojlanib bormoqda. Fikrimizning dalili sifatida D.G.Maltsevaning lingvoo'lkashunoslik lug'atini keltirishimiz mumkin. Bu lug'at 25 bobdan iborat. Unda Germaniya realiyalarida ifodalovchi til birliklari, iqlim xususiyatlari, xayvonot va o'simlik dunyosi, mamlakatlar tarixi, qadimiy urf-odatlar, an'analar; qadimiy afsonalar, son va rangni ifodalovchi simvollar; to'y, marosimlar, bayramlar; diniy marosimlar; valyuta tizimining rivojlanishi; uzunlik, og'irlik, xajm, yuza; savdo-sotiqishlari, fan, texnika, tibbiyot; pochta xizmati, shaharlar qurilishi va arxitektura tarixi kabilar obekt sifatida olingan.

Ko'rinib turibdiki, lingvokulturologiya soxasi shu kunga qadar o'rganib kelinmoqda va bu borada ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Трубецкий Н.С. Поведения и мышления к языку. в кн.: НЛ.в.1 М., 1960.
2. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – 288 с.
3. Nurmonov A. O'g'rupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi // Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. – Toshkent: Akademnashr, 2012. 2-jild. – B. 23-40; Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 5. – B. 3-16.
4. Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. Вып. 7. – 2004. – С. 238-243; Махмудов Н. Кўрсатилган мақола. – Б. 3-16.
5. Америка. Англо-русский лингвострановедческий словарь / Под ред. Н.В.Чернова. - Смоленск, 1996; Рума.Р.У. Великобритания: Лингвострановедческий словарь. -М., 1999;
6. Мальцева Д. Г. Германия: страна и язык: Лингвострановедческий словарь. - М., 1998; Муравлева Н.В. Австрия: Лингвострановедческий словарь. - М., 1997; Николау Н.Г. Греция: Лингвострановедческий словарь. - М., 1995; Страны Соединенного Королевства: Лингвострановедческий справочник / Сост. Г.Д.Томахин. - М., 1999; Томахин Т.Д. США: Лингвострановедческий словарь. - М., 1999;
7. Франция: Лингвострановедческий словарь / Под ред. Л. Г. Ведениной. - М., 1997.